# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2022 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 11 951,1 mlrd.so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 4 938,0 mlrd.so‘mni (105,9 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 6 836,5 mlrd.so‘mni (101,7 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 53,3 mlrd. so‘mni (96,8 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 49,7 mlrd. so‘mni (122,7 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,7 mlrd.so‘mni (109,5 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 72,9 mlrd.so‘mni (101,8 foiz) tashkil qildi.



**11 951,1** — **Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm**

01 — **11 828,5** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02 — **72,9** — **O'rmon xo'jaligi**

03 — **49,7** — **Baliqchilik xo'jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) hajmining taqsimlanishi,** foizda
*(2022 yil yanvar-iyun)*

| | *Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar hajmi* | | *Aholi jon boshiga, (ming so‘m)* |
|---|---|---|---|
| | *mlrd. so‘m* | *2021 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, o‘sish sur’ati % da* | |
| **Buxoro viloyati** | **11 951,1** | **103,4** | **6 024,9** |
| Buxoro sh. | 145,4 | 104,2 | 510,1 |
| Kogon sh. | 24,0 | 3,4 m | 383,0 |
| *tumanlar* | | | |
| Buxoro | 1 417,0 | 102,4 | 8 202,9 |
| Vobkent | 1 042,4 | 102,7 | 7 237,0 |
| Jondor | 1 536,8 | 101,7 | 8 544,8 |
| Kogon | 810,8 | 103,5 | 9 958,3 |
| Olot | 932,0 | 103,0 | 9 167,5 |
| Peshko‘ | 1 072,1 | 103,7 | 8 433,7 |
| Romitan | 975,7 | 104,7 | 6 645,4 |
| Shofirkon | 1 045,7 | 105,1 | 5 737,4 |
| Qorako‘l | 1 314,9 | 103,3 | 7 833,2 |
| Qorovulbozor | 350,0 | 108,7 | 18 257,0 |
| G‘ijduvon | 1 284,3 | 102,8 | 4 104,6 |

**2022 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur’atlari**




Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Qorovulbozor (108,7 foiz), Shofirkon (105,1 foiz), Romitan (104,7 foiz) va Peshko‘ (103,7 foiz) tumanlarida kuzatildi. Jondor (101,7 foiz) va Buxoro tumanida (102,4 foiz) esa aksincha past sur’atlar kuzatildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021 yil mos davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 105,9 foizni va chorvachilik mahsulotlari 101,7 foizni tashkil qildi.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi,** foizda




**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi,** foizda



2022 yil yanvar-iyun oylarida 11 774,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 4 938,0 mlrd. so'mga teng qismi yoki 41,9 foizi dehqonchilik, 6 836,5 mlrd. so'mga teng qismi yoki 58,1 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Jondor va Vobkent tumanlarida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini ko'rsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 67,9 - 44,2 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon, Olot, Qorako'l, G'ijduvon tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 68,4 - 59,0 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi,** foiz




Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 76,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 2,8 foizi qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi hududlar kesimida,** foizda




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2022 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor (58,7 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Olot (87,2 foizi) tumanlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qorovulbozor (8,8 foizi) tumanida qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Olot (11,6 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor (32,5 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shofirkon (0,6 foizi) tumanlarida qayd etildi.

## Dehqonchilik



2022 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 4 938,0 mlrd.so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 105,9 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,9 foizni tashkil kildi.

Viloyatda 2022 yil 1 iyul holatida davlat xirmoniga 113,1 ming tonna g‘alla topshirildi. Jamg‘armaviy reja 105,5 foizga uddalandi. Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun 16,8 ming tonna urug‘lik don ham tayyorlandi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar 226135 gektar maydonda dehqonchilik bilan shug‘ullanib, shundan jami don 71204 gektarni, shu jumladan, boshoqli don 69032 gektarni, shundan bug‘doy 68543 gektarni, makkajo‘xori don uchun 679 gektarni, dukkakli don ekinlari 1069 gektarni, texnik ekinlar jami 93239 gektarni, shu jumladan, g‘o‘za maydoni 90452 gektar, moyli ekinlar 1341 gektar, kartoshka 9286 gektarni, sabzavotlar jami 21656 gektarni, poliz 3684 gektarni, sabzavot ekini urug‘zorlari 67 gektarni, ozuqa ekinlari 26999 gektarni, bundan tashqari mevalar va rezavorlar maydoni 15108 gektarni hamda tokzorlar 8660 gektarni tashkil etdi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining salmog‘i yuqori bo‘lmoqda, jumladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 85,9 foizi, sabzavotning 87,2 foizi, poliz mahsulotlarining 38,1 foizi, uzumning 63,7 foizi va mevaning 68,6 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Hosilni yig‘ib olish



2022 yilning yanvar-iyun oylarida jami don 383323 tonna (2021 yil shu davriga nisbatan 8,3 foizga ko‘p), shu jumladan, boshoqli don 382499 tonna, shundan bug‘doy 380857 tonna o’rib olindi.

Kartoshka 167038 tonna (10,2 foizga ko‘p), sabzavot 258504 tonna (1,5 foizga ko‘p), poliz 22424 tonna (12,0 foizga ko‘p), meva 116793 tonna (8,3 foizga ko‘p), uzum 5354 tonna (3,4 foizga ko‘p) yig‘ib olindi.

**Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi, % hisobida**



## 2022 yilning yanvar-iyunida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *ming tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Don | 320,9 | 107,5 | 45,8 | 101,6 | 16,6 | 157,9 |
| Kartoshka | 20,6 | 2,4 m. | 143,5 | 100,3 | 2,9 | 110,1 m. |
| Sabzavotlar | 27,2 | 105,4 | 225,3 | 100,1 | 6,0 | 164,3 |
| Poliz | 13,5 | 124,4 | 8,5 | 96,2 | 0,4 | 131,0 |
| Mevalar va rezavorlar | 36,3 | 128,7 | 80,2 | 100,7 | 0,3 | 6,7 m. |
| Uzum | 2,0 | 106,5 | 3,4 | 102,2 | 0,009 | 39,1 |

## 2022 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Don** *(tonna)*




**Kartoshka** *( tonna)*



## Sabzavotlar *(tonna)*




## Poliz *(tonna)*




## Mevalar va rezavorlar *(tonna)*




## Uzum *(tonna)*



## Chorvachilik



2022 yil yanvar - iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6836,5 mlrd.so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,1 foizni tashkil etdi.

2022 yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 127969 tonna go'sht (2021 yil yanvar - iyunga nisbatan 2,5 foizga ko'p), 469,6 ming tonna sut (1,4 foizga ko'p), 230,6 mln.dona tuxum (10,9 foizga ko'p), 2412 tonna jun (3,4 foizga ko'p), 376,2 ming dona qorako'l teri (o'tgan yilga nisbatan 1,1 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida xo'jaliklar toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo'jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo'jaliklari* | | *dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari* | | *qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *miq-dori* | *o'sish sur'ati, foiz* | *miq -dori* | *o'sish sur'ati, foiz* | *miq-dori* | *o'sish sur'ati, foiz* | *miq -dori* | *o'sish sur'ati, foiz* |
| Go'sht tirik vaznda, *tonna* | 127 969 | 102,5 | 7 097 | 120,4 | 117 699 | 100,2 | 3173 | 2,1 m. |
| Sut, *tonna* | 469 585 | 101,4 | 29 857 | 107,4 | 436 963 | 100,6 | 2 765 | 3,5 m. |
| Tuxum, *ming dona* | 230 611 | 110,9 | 43 141 | 110,7 | 133 295 | 101,6 | 54 175 | 143,7 |
| Jun, *tonna* | 2 412 | 103,4 | 315 | 116,8 | 2 000 | 101,8 | 97 | 100,0 |
| Qorako'l teri dona | 376 246 | 101,1 | 34 663 | 100,5 | 324 703 | 100,9 | 16 880 | 107,0 |

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taxlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go‘shtning umumiy hajmidan 92,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,1 foizi, tuxumning 57,8 foizi, junning 82,9 foizi, qorako‘l terining 86,3 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi**




**2022 yil 1 iyul holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *fermer xo‘jaliklari* | | *dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* | *ming bosh* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
| Yirik shoxli qoramollar | 1 278,3 | 102,7 | 92,0 | 118,3 | 1 169,3 | 101,4 | 17,0 | 120,6 |
| *shu shumladan* sigirlar | 416,6 | 102,7 | 32,0 | 122,6 | 380,6 | 101,1 | 4,0 | 125,0 |
| Qo‘y va echkilar | 2 297,8 | 103,7 | 338,2 | 118,0 | 1 790,6 | 100,9 | 169,0 | 109,1 |
| Parrandalar | 6 030,4 | 112,8 | 1 278,8 | 125,9 | 3 023,6 | 100,1 | 1 728,0 | 132,3 |

## Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi

**Go‘sht** *(ming t.)*




**Sut** *(ming t.)*




**Tuxum** *(mln.dona)*




**Ovlangan baliq** *(tonna)*



**2022 yil 1 iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **1 278,3** | **102,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 92,0 | 118,3 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 1 169,3 | 101,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 17,0 | 120,6 |
| shundan sigirlar | 416,6 | 102,7 |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 32,0 | 122,6 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 380,6 | 101,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 4,0 | 125,0 |
| **Qo'y va echkilar** | **2 297,8** | **103,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 338,2 | 118,0 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 1 790,6 | 100,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 169,0 | 109,1 |
| **Otlar** *(bosh)* | **7 329** | **113,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari *(bosh)* | 2 860 | 141,7 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari *(bosh)* | 3 430 | 92,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar *(bosh)* | 1 039 | 139,1 |
| **Parrandalar** | **6 030,4** | **112,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 1 278,8 | 125,9 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 3 023,6 | 100,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 728,0 | 132,3 |

**2022 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *Miqdori* | *o‘sish sur’ati, foiz* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda),** *ming tn.* | **128,0** | **102,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 7,1 | 120,4 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 117,7 | 100,2 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3,2 | 2,1 m. |
| **Sut, *ming tn.*** | **469,6** | **101,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 29,9 | 107,4 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 437,0 | 100,6 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,7 | 3,5 m. |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **230,6** | **110,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 43,1 | 110,7 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 133,3 | 101,6 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 54,2 | 143,7 |

## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2022 yil 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 278,3 ming boshni, shu jumladan sigirlar 416,6 ming boshni, qo‘y va echkilar 2 297,8 ming boshni, ot 7 329 boshni, parrandalar 6 030,4 ming boshni tashkil etdi. 2021 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 33,1 ming boshga (2,7 foizga), shu jumladan sigirlar 10,8 ming boshga (2,7 foizga), qo‘y va echkilar 81,6 ming boshga (3,7 foizga), otlar 846 boshga (13,0 foizga), parrandalar 686,0 ming boshga (12,8 foizga) ko‘paydi.

**Xo‘jalik toifalarining chorva mollari**
**va parrandalar bosh sonidagi ulushi,** foizda



2022 yil 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 7,2 foizi fermer xo‘jaliklariga 91,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,3 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 14,7 foizi fermer xo‘jaliklariga, 77,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 21,2 foizi fermer xo‘jaliklariga, 50,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 28,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

**2022 yil 1 iyul holatiga shahar va tumanlar kesimida**
**chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Yirik shoxli qoramollar** *(ming bosh)*




***shu jumladan:*** **sigirlar** *(ming bosh)*



**Qo'ylar va echkilar** *(ming bosh)*




**Parrandalar** *(ming bosh)*




**Fermer xo'jaliklari.** 2022 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2389,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 20,3 foizni tashkil etdi.

2022 yil 1 iyul holatida fermer xo'jaliklarida 92,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 32,0 ming bosh sigir, 338,2 ming bosh qo'y va echkilar, 1278,8 ming bosh parrandalar mavjud bo'lib, 2021 yil 1 iyul holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 18,3 foizga ko'p, qo'y va echkilar 18,0 foizga, parrandalar 25,9 foizga ko'paygan.

**2022 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *2021 yil* | | *2022 yil* | | *o‘sish sur’ati,foiz* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Don jami | 298 482 | 84,3 | 320 911 | 83,7 | 107,5 |
| Kartoshka | 8 442 | 5,6 | 20 630 | 12,4 | 2,4 m. |
| Sabzavot | 25 821 | 10,1 | 27 216 | 10,5 | 105,4 |
| Poliz | 10 865 | 54,3 | 13 518 | 60,3 | 124,4 |
| Mevalar | 28 219 | 26,2 | 36 313 | 31,1 | 128,7 |
| Uzum | 1 819 | 35,1 | 1 937 | 36,2 | 106,5 |
| Go‘sht, tirik vaznda | 5 892 | 4,7 | 7 097 | 5,5 | 120,4 |
| Sut | 27 795 | 6,0 | 29 857 | 6,4 | 107,4 |
| Tuxum, ming dona | 38 979 | 18,7 | 43 141 | 18,7 | 110,7 |
| Jun | 270 | 11,6 | 315 | 13,1 | 116,8 |
| Qorako‘l teri, dona | 34 499 | 9,3 | 34 663 | 9,2 | 100,5 |
| Pilla | 861,1 | 36,1 | 761,4 | 29,6 | 88,4 |
| Ovlangan baliq | 670 | 33,5 | 708,7 | 28,8 | 105,8 |

2022 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan tirik vaznda 7097 tonna go‘sht (2021 yil yanvar - iyunga nisbatan 20,4 foizga ko‘p), 29,9 ming tonna sut (7,4 foizga ko‘p), 43,1 mln.dona tuxum (10,7 foizga ko‘p), 315 tonna jun (16,8 foizga ko‘p), 34,7 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 0,5 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.